

9. Ruytenbeek, N., Allaert, J., & Vanderhasselt, M.-A. (2024). Psychophysiological effects of evaluative language use on Twitter complaints and compliments. *Internet Pragmatics*, 7(2), 193–218. <https://doi.org/10.1075/ip.00092.ruy>
10. Searle, R. J. (1979). *Expression and Meaning Studies in the Theory of Speech Act*. Cambridge University Press.

Dehqonova Maxsuma Shavkatovna, Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ORCID: 0000-0001-5750-2771 sh.m.dehqonova@pf.fdu.uz



UDK: 821.512.133

OYBEKSHUNOSLIKKA DOIR TADQIQOTLAR

<https://zenodo.org/records/19841550>

Annotatsiya. XX asrning 80-90-yillari Oybek ijodi keng o'rganildi. Uning she'riyati, nasri M.Qo'shjonov, B.Nazarov, N.Karimov, O.Sharafiddinovlar tomonidan tadqiq etildi, ayniqsa, 90-yillardan keyingi A.Sabirdinov, U.Hamdani tadqiqotlarida uning ijodiga shakliy, mazmuniy jihatdan yondashuv yangi bosqishga ko'tarildi.

Kalit so'zlar: 80-90-yillari o'zbek adabiy tanqidchiligi, oybekshunoslik, poetik mahorat, uslubi baholanishi, sho'ro hukumati, istiqloq davri.

RESEARCH ON OYBEK STUDIES

Abstract. In the 80s and 90s of the 20th century, Oybek's work was widely studied. His poetry and prose were studied by M.Kushjanov, B.Nazarov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, especially in the studies of A.Sabirdinov, U.Hamdani after the 90s, the formal and substantive approach to his work reached a new level.

Keywords. 80s-90s Uzbek literary criticism, Oybek studies, poetic skill, evaluation of style, Soviet government, independence period.

ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ОЙБЕКОВЕДЕНИЮ

Аннотация. Его поэзия и проза изучались М.Кушжановым, Б.Назаровым, Н.Каримовым, О.Шарафиддиновым, особенно в исследованиях А.Сабирдинова, У.Хамдама после 90-х годов подход к его творчеству с точки зрения формы и содержания поднялся на новый уровень.

Ключевые слова. 80-90-е годы узбекской литературной критики, исследования Ойбека, оценка поэтического мастерства и стиля, советская власть, период независимости.

KIRISH

O'rganilayotgan davrda Oybek ijodi boshqalardan ko'ra salmoqliroq tadqiq etildi. Hamid Olimjonning "Oybek prozada shoiru poeziyada prozaikdir. U eng mayda ikirchikirlarni she'rda kuylay biladigan talantli shoirdir. U kishilar portreti, ko'z va qosh harakatlarini juda aniq tasvirlab beradi..." [1.251.], degan ta'rifi, shaxsiyati haqidagi zamondoshlari tomonidan aytilgan fikrlari oybekshunoslikda alohida o'rin egalladi. Oybek she'riyati, nasri shu bilan birga, uning shaxsiyati ham qator tadqiqotlarga manba bo'ldi. Oybekning shaxsiyati, o'spirin Musodan yetuk Oybekka bo'lgan davri Zarifa Saidnosirovaning [2.5.] "Oybegim mening" nomli kitobidan o'rin oldi. Uning ijodi bo'yicha tadqiq olib borgan munaqqidlar, olimlar adib shaxsiyati, faoliyati, asarlari uslubi, g'oyasi, poetik mahoratini tahlil qildilar. Tanqidchi Umarali Normatov ta'kidlaganidek: "Kim bilsin, ehtimol, hozirgi yosh tanqidiy iste'dodlar orasida Oybekni yoki G'afur G'ulom ijodini bizdan ham teranroq his qiladiganlari, bizdan ham yorqinroq, ta'sirliroq shaklda ochib beradiganlari bordir?" [3.142.]. 80-90-yillar oralig'ida eng ko'p o'rganilgan ijodkor Oybek ekani ma'lum. Shunga qaramay, tanqidchi Oybek ijodi qayta o'rganish muhimligini qayd etadi.

Oybek ijodi Homil Yoqubov, Matyoqub Qo'shjonov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, No'mon Rahimjonov, Ibrohim G'afurov, Akbarali Sabirdinov, Ulug'bek Hamdam va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. 80-yillardan uning ijodiga munosabat yangilanib, qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, oybekshunoslikni Naim Karimovsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Biz oybekshunoslikni M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov hamda Naim Karimov tadqiqotlari asosida ko'rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

M.Qo'shjonovning "Oybek mahorati" [6.12.] nomli kitobida yozuvchining qahramon va xarakter yaratish mahoratini keng tahlil qilgan. Yozuvchining epik asarlarini ilmiy-nazariy jihatdan tekshirgan. Tanqidchining "Ma'no va mezon" [7.102.] nomli kitobida Oybek ijodi, "Asarda obrazlar birligi" [7.102.] maqolasida "Qutlug' qon" romanidagi asosiy va yordamchi obrazlar, ularning asar pafosini ochishdagi roli, bir timsolning boshqa timsol xarakterini ochishdagi ta'siri kabilar, "Hayot va qahramon" [9.153.] nomli ilmiy risolasida roman haqidagi mulohazalari mavjud bo'lib, unda Yo'lchi xarakteri, oddiylikdan murakkablikka tomon o'sib borish jarayoni, Gulnor obrazining o'ziga xosligi misollar asosida tahlil qilingan. Kitobning "Ulug' yo'lda" [9.153.] bobida "Ulug' yo'l" romani obrazlariga to'xtaladi. "Adibning so'nggi romani" [9.168.] maqolasida ham "Ulug' yo'l" romani xususidagi mulohazalari bayon qilingan. M.Qo'shjonov "O'zbek xalqining yangi hayot sari ulug' yo'li haqidagi bu romanni, Oybekning barcha she'rlari, poemalari va romanlarini revolyutsiya haqidagi epopeyaning oxirgi bobi, xotimalovchi qismi deyish mumkin" [9.107.]. Tanqidchining xulosalariga ko'ra "Ulug' yo'l" Oybek ijodining umumlashmasi, ya'ni xotimasi. M.Qo'shjonov yaratgan Oybekning portreti [6.12.] ham butun qiyofasini ochib berdi. M.Qo'shjonov Oybek hayoti va ijodi haqida umumlashtiruvchi xarakterdagi adabiy

portret yaratdi. M.Qo'shjonov "Oybek mahorati" monografiyasida Oybekning dostonlarini ham tahlil qilgan. Unga ko'ra, "Dilbar – davr qizi" poemasi o'zbek xotin-qizlarining xarakterini mukammal yarata olganligini, "O'ch" poemasi, chapanilar hayotiga bag'ishlanishi [6.25], "Baxtigul va Sog'indiq" tahlilida Sog'indiqlarning xarakterida mavhumlik ko'pligi"ni qayd etadi. Shunga qaramay, o'z ijodidan qoniqmagan munaqqid "Ko'ngilda qolgan gaplar" [5.127.] risolasida Oybek ijodini qayta taftish etdi. O'zi ta'kidlaganidek, risolada mafkura ta'sirida ayta olmagan fikrlarini mustaqillik muhitida ochiq aytdi.

Oybek ijodi bo'yicha Ozod Sharafiddinov ancha vaqtgacha izlanmadi. Bu haqda munaqqid shunday degan edi: "Homil Yoqubov, Matyoqub Qo'shjonov, Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim G'afurov kabi zabardast oybekshunoslar panjasiga panja urishdan hayiqqandirman. Balki, hamisha Oybekning vujudida ufurib turadigan ulug'vorlik qarshisida o'zimni ojiz sezgandirman" [6.25.]. Uning qayd etishicha, Oybek tavalludining 100 yilligi oldidan A.A'zam maqola yozishni maslahat beradi. Salomatligi yomonlashib kasalxonada yotgan olim Oybek ijodi bo'yicha yaxshigina ilmiy maqola yozadi. Milliy universitetda chop etilgan to'plam O.Sharafiddinovning "Millatni uyg'otgan adib" maqolasi bilan ochilgan. Maqolada munaqqid bir matematik bilan bo'lgan suhbatini yozar ekan, "Qaysi roman XXI asrga o'tadi?", degan savoliga, "Navoiy", deb javob berganman, deydi. Uning yozishicha, Oybekning romani Alisher Navoiy siymosini anglash uchun yozilgan, chunki ulug' siymo haqida batafsil va to'laqonli yozilgan roman edi. Tanqidchi Oybekning inson sifatida eng buyuk fazilatlarini ta'kidlaydi. "XX asrda ikkita komil inson o'tgan bo'lsa, ularning biri Oybekdir. Agar bitta bo'lgan bo'lsa, u ham Oybekdir" [6.25.]. Ijodkorning xarakterini ham tasvirlab, undagi ijtimoiy adolat tuyg'usi kuchli ekanligini qayd etdi.

Oybekning "Na'matak" she'rini tahlilga tortib, shoirni adolat bilan kurashganini ta'kidlaydi. Oybek adabiyotshunos sifatida 1927-yili Cho'lponni himoya qilgani, Oybekning "g'oyaviy-siyosiy xatosi" aytilgan bo'lsa-da, 1930- yillarning o'rtasida "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" nomli risolasini yozishi munaqqidning aytishicha, "shakkoklik" edi. Shu ishlardan so'ng Oybek ishdan ketib, ayolining maoshiga kun ko'rishga majbur bo'lgan. Shu qiyin sharoitda u o'zining "Qutlug' qon"ni yaratadi. Bu romandan g'oyaviy illat topilgandan so'ng adib mafkuraviy tazyiq talabi bilan ba'zi obrazlarni kiritishga majbur bo'ladi: "Unga yopishsa-yopishmasa, inqilobchi Petrov obrazini kiritib, uni Yo'lchiga ustoz qilishga majbur etishadi. 1937-1938-yillar sharoitida Oybek "do'stlari"ning talabiga yon berishga majbur bo'ladi. Natijada, romanda so'galga o'xshagan sovuqdan-sovuq bir bob paydo bo'ladi" [6.12.]. Oybekning butun bir ijodi haqida tassavvur bera oladigan munaqqidning ushbu maqolasi oybekshunoslikning taraqqiyotida alohida o'ringa ega.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Umarali Normatov o'zining Abdulla Qahhor haqidagi "Adabiy tanqid jonkuyari" [18.176.] maqolasida ustozining Oybek to'g'risidagi xotiralarini keltiradi: "U o'zbek adabiyotida bamisoli hamma tomondan barchaning ko'ziga tashlanib turadigan ulkan, salobatli qoya. Bulutli kunlar dovullari ham, serg'alva davr zilzilalari ham bu qoyani qulata olmadi". Shu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, adabiy tanqidchilikda Oybekning shaxsi va ijodiga nisbatan hurmat, e'tirof doimo saqlanib qolgan. Shuningdek, Oybek haqida Umarali

Normatovning qiziq xotiralari bor. 1964-yillarda bir guruh ijodkorlar, xususan, tanqidchimiz ham yozuvchining 60 yillik sanasi bilan qutlagani borishgan. Ijodkorlar orasida G‘ulom Karimov ham bo‘lib, Oybekni toliqtirib qo‘ymaslik uchun uning qarshisida 15 daqiqa bo‘lishni maslahat beradi. Yosh tanqidchi G‘.Karimov, Subutoy Dolimovlar bilan Oybek huzuriga kelganini eng ulug‘ ishlardan deb bilgan. Suhbat jarayonida yoshliklarini eslashgan do‘stlar u uchun ibrat sabog‘i bo‘lgan. Tanqidchi Oybekning shu davr ijodkorlariga ham ustozlik qilib, shogirdlar uchun keng yo‘l ochganini ta’kidlaydi. Xususan, G‘ulom Karimov Navoiy ijodi ustida tadqiqoti Oybekdan maslahatlari bilan shakllangan. Umarali Normatov xotiralari yakunida: “Oradan qirq yil o‘tib, o‘sha adib huzuridagi 19 daqiqalik uchrashuv tafsilotlarini eslar ekanman, biz adabiyotshunos-munaqqidlar, Milliy universitet professor-o‘qituvchilari bu tabarruk zot oldidagi burchimizni o‘tay oldikmi, degan o‘y xayolimdan kechdi. Sarhisob qilinadigan bo‘lsa, ko‘ngilga taskin beradigan xayrli ishlar ado etilganligiga iqror bo‘lasan kishi” [19.http.], degan edi. Oybek o‘z davri va undan keyingi avlod uchun ijodkor, adabiyotshunos sifatida o‘rnak bo‘la oldi. Eng muhimi u tanqidchilarga ham ustoz edi. Uning qarshisida o‘tirishga munosib bo‘lishning o‘zi bir baxt sanalgan. Bu fikrimizni Oybekka bag‘ishlangan “Oybek zamondoshlar xotirasida” kitobida qayd etilgan esdaliklar dalillay oladi.

Naim Karimov umrining ko‘p qismi Oybek ijodini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Uning “Oybek” (1985), “Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar” (1985), “Oybek va Zarifa” (1990), “Ilhom chashmasining ajib mavjlari” (1982) singari asarlari shu izlanishlar natijasi. Uning Naim Karimovning “Oybek” nomli essesi yozuvchining tug‘ilishidan vafotigacha bo‘lgan davrini qamrab oladi. “Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar” [20.80.] *risolasida esa Oybek ijodiy laboratoriyasi kirib boradi. Risolada ijodkorning turli adabiy janrlarga mansub tugallanmay qolgan badiiy asarlari tekshirilgan. Oybekning nashr etilgan barcha asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan olim uning tugallanmay qolgan asarlarining g‘oyaviy mundarijasini tiklashga uringan va tegishli xulosalarga kelgan.*

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, oybekshunoslik maktabi shu yillarda taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. 80-yillar oshkoralik boshlanishi oybekshunoslikning rivojiga sabab bo‘ldi. M.Qo‘shjonov, B.Nazarov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, I.G‘afurov, Y.Solijonov, A.Sabirdinov, U.Hamdani Oybek ijodi bo‘yicha keng tadqiqotlar olib bordilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Олимжон Х . Мукаммал асарлар тўплами. 10 том. 6-том. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 280-281.
- 2.Саидносирова З. Ойбегим менинг. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 5.
- 3.Норматов У. Талант тарбияси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980. – Б.142.
- 5.Қўшжонов М. Кўнгилда қолган гаплар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 127.
- 6.Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Тошкент, 1965. – Б. 356.
- 7.Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 168.

8. Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Б. 94-102.

9. Қўшжонов М. Ҳаёт ва қаҳрамон. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 92 – 153.

10. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б. 493.

11. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б. 496.

Sabirov Ne‘mat Kazakbayevich, dotsent, Farg‘ona davlat universiteti

Umurzakova Nilufar, 4-bosqich talabasi, Farg‘ona davlat universiteti

Orcid: 0009-0000-9495-9404 e-mail: nilyushka19@icloud.com



ADABIYOT DARSLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘yin texnologiyalarining o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Zamonaviy o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasining pasayishi va ularning kognitiv xususiyatlaridagi o‘zgarishlar sharoitida an‘anaviy reproduktiv ta‘lim usullaridan interaktiv modellarga o‘tish zarurligi asoslab beriladi. Maqolada badiiy matnni passiv qabul qilishdan uni faol ijodiy qayta talqin qilishga o‘tish mexanizmlari batafsil yoritiladi. Xususan, rolli o‘yinlar, adabiy kvestlar va raqamli geymifikatsiya elementlarining divergens fikrlash hamda emotsional intellektni rivojlantirishdagi roli ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida o‘yin faoliyati nafaqat yordamchi metod, balki zamonaviy ta‘lim muhitida ijodkor shaxsni shakllantirishning muhim omili ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘yin texnologiyalari, adabiyot o‘qitish metodikasi, ijodiy qobiliyatlar, kreativlik, geymifikatsiya, rolli o‘yinlar, divergens fikrlash, matn talqini.

THE SIGNIFICANCE OF USING GAME-BASED TECHNOLOGIES IN LITERATURE CLASSES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the significance of game-based technologies in the development of students’ creative abilities in literature classes. In the context of declining reading motivation among modern learners and changes in their cognitive characteristics, the necessity of shifting from traditional reproductive teaching methods to interactive models is substantiated. The paper examines the mechanisms of transitioning from passive perception of a literary text to its active creative reinterpretation. In particular, the role of role-playing, literary quests, and elements of digital gamification in